

I. Mavzu: Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari.

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy-dars jarayonida o’quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko’nikma, malakalarini rivojlantirish;

b) Tarbiyaviy-o’quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini o’stirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

c) Rivojlantiruvchi-o’quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish;

III. Dars turi: o’quvchilarga yangi bilim berish darsi.

IV. Dars uslubi: guruhlarga bo’lish, munozara.

V. Dars jihozi: dunyo siyosiy haritasi, darslik, tarqatma materiallar, diogrammalar.

VI. Tayanch tushuncha va atamalar: Evrika, Aflotun, Suqrot, Richag qonuni.

VII. Darsning borishi:

1) Tashkiliy qism:

a) salomlashish

b) navbatchi axboroti

c) davomatni aniqlash

d) o’quvchilarni darsga tayyorlash

v) nazorat qilish

2) O’tilgan darsni mustahkamlash. O’tilgan mavzu bo’yicha savol-javob o’tkazish.

3) Yangi mavzu bayoni:

Qagimgi Yunonistonda fanning turli sohalari bo'yicha mashhur olimlar yetishib chiqqanlar. Milloddan avvalgi VII-asrlarda Yunonistonda Gomer, Geriod, Gerodot, Demokrit va Prodogor, Gippokrat, Suqrot, Aflotun va Aristotel kabi ulug' siymolar yashab ijod etganlar.

Pifagor (mil. Av. 580-500) yunon matematigi, faylasuf, quldor aristokratiyaning g'oyaviy targ'ibotchisi miloddan avvalgi 530-yildan Janubiy Italiyadagi Krotone shahrida keyinroq Metopont shahrida yashagan. Matematika tarixida Pifagor geometriyaga sistematik isbot tushunchasini kiritib uni abstrakt fan darajasiga ko'targan. Tog'ri chiziqli shakllar geometriyasini tuzgan.

Platon Afinalik Sharqda uni Aflotun deb atashgan. Haqiqiy ismi Aristokl miloddan avvalgi 427-yilda tug'ilgan. Platon mashhur faylasuflar bilan yoshligidan muloqotda bo'lib ulardan ta'lim oldi. Geraklit, Parmenid, Demokrit va boshqa faylasuflarning asarlarini o'rgandi. Plotondan 30 ga yaqin katta va kichik asar hamda xatlar saqlanib qolgan.

Sofokl (miloddan avvalgi 496-406)- yunon dramaturgi shoir, siyosiy va harbiy arbob Antik manbalarga ko'ra, 123 dramma yozgan. Bular Ayaks, Antigona, Shoh Edip asarlari bizgacha yetib keldi.

Geradot V asrda yashagan mashhur yunon tarixchisi. U hayotlik davridayoq tarixni otasi unvonini olgan . Uning eng mashhur asari "Tarix" 9 tomdan iborat va "Yunon-fors urushlari" haqida asar yozgan. U Misr, Mesopotamiya, Qora dengiz bo'ylarida joylashgan yunon polislarida aylanib chiqib ular tarihi haqida batafsil ma'lumot beradi. Geradotning bizning tarihimizga oid ko'plab ma'lumotlarni to'plagan. Masalan uning "Tarih" nomli kitobida Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona va Sak, Massaget qabilalari haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. Gerodot Fors podshosi Kir II bilan Massaget malikasi To'maris o'rtasidagi jangni batafsil bayon etgan.

Yunonlarning eng aqlli kishisi Suqrot hisoblanadi. Suqrot ko'proq yer yuzini paydo bo'lishi, odamzod va hayvonot dunyosini paydo bo'lishi haqida fikr yiritgan. Suqrot o'zi va donishmandligi haqida "Mening

donishmandligim shundaki, men hech narsani bilishimni bilmasligimdadir” deb aytib o’tgan. U ko’proq o’z asarlarini og’zaki bayon qilgan. Hech qachon qog’ozga tushirmagan. Suqrot haqida biz Platonning asarlari orqali ma’lumot olamiz.

Arhimed Sirakuzalik mashhur olim va mutaffakkir. Uning bizgacha mashhur “evrika” iborasi yetib kelgan. U asosan yerning tortishish qununi haqida ma’lumotlar bergan. Arhimedning mashhur so’zlari, u aytadiki “Menga yerning tayanch nuqtasini topib bering, men yerni o’z o’qidan chiqarib yuboraman”. Uning vatandoshlari Arhimed haqida ko’plab afsonalar to’qiydi. Ulardan birida aytilishicha katta ko’zgular yordamida quyoshdan kelayotgan nurlarni to’plab ikkinchi tayanch nuqtaga yuborgan. Natijada esa Serakuzaga bostirib kelayotgan fors kemalarini yoqib yuborgan.

Arhimed shu darajada ilmga berilganki uning jonajon Serakuza shahrini Rim askarlari bosib olayotgan paytda qochish o’rniga uyi oldida o’tirib olib qaysider arifmetik amalni yechayotgan bo’lgan. Rim askari yetib kelgan chog’ida unga qarata “mening chizmalarimga qo’lingni tekkizma” deya olgan holos.

Demokrit dunyo yaralishi haqida “Olam mayda-mayda ko’z ilg’amas kichik atomlardan tashkil topgan” deb aytib o’tgan. Geraklit esa olam yaralishi haqida “Barcha narsa olovdan paydo bo’lgan, hamma narsa oqadi, hech bir narsa o’z o’rnida turmaydi. Inson bu olamga bir marta sho’ng’iydi. Ikkinchi marotaba sho’ng’ishi mumkin emas.” deb aytib o’tgan. Yana bir olim Doigen “Insonda hech qanday ehtiyoj bo’lmasligi kerak va inson har qanday mayldan voz kechish kerak.” deb aytgan. O’zi ham dengiz bo’yida bir bo’chka topib uning ichida yashagan. Shu shaharni Aleksandr Makedonskiy bosib olgach Diogen oldiga keladi va unga “senga qanday yordam bera olishim mumkin ?” deydi. Shunda Diogen Aleksandrga qarab “nariroq tur, quyoshni to’sib qo’yyabsan” deb aytadi.

VIII. Darsni yakunlash. O'quvchilarni bajargan yozma yoki og'zaki javoblari uchun baholarni e'lon qilish.

IX. O'quvchilar tomonidan yuzaga kelgan savollarga javob qaytarish.

X. Mavzuni umumlashtirish: Qadimgi Yunoniston olimlari va mutaffakkirlari haqida ma'lumotlarni bilib oldingiz.

XI. Darsning yakuni. Uyga vazifa: mavzuni o'qib kelish va yunon olimlari haqida qiziqarli ma'lumotlar yig'ib kelish.